

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

No1

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026

yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 121 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА..... | 26 |
| Каракулов Фарход Зайпудинович | |
| TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI | 33 |
| Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna | |
| QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH | 38 |
| Achilov Ilmurad Nematovich | |
| TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI..... | 45 |
| Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li | |
| КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ | 51 |
| Алиева Сусанна Сейрановна | |
| ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОБЩЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ | 58 |
| Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич | |
| BARQAROR INVESTITSIYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI | 65 |
| Ruzibayeva Nargiza Xakimovna | |
| KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA..... | 71 |
| Ashurova Oltin Yuldashevna | |
| FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI..... | 78 |
| Xusanova Gulsum Baxtiyorovna | |
| QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI | 84 |
| Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova | |
| TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 89 |
| Atajanov Kamal Atavayevich | |
| AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI | 96 |
| Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li | |
| O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL | 101 |
| Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich | |
| TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR | 108 |
| Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li | |
| TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | 113 |
| Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich | |



TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning o'ziga xos xususiyatlari, uning bank faoliyati barqarorligini ta'minlashdagi iqtisodiy ahamiyati hamda moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi roli kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida depozit bazasining bank likvidligi, kreditlash salohiyati va risklarni boshqarish tizimidagi o'rni nazariy hamda amaliy jihatdan yoritib beriladi. Shuningdek, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini tijorat banklariga jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish, depozit mahsulotlarini diversifikatsiyalash, depozit siyosatini samarali amalga oshirish hamda banklar o'rtasida raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, depozit bazasi, bank depozitlari, moliyaviy resurslar, bank likvidligi, kreditlash salohiyati, depozit siyosati, moliyaviy barqarorlik, bank raqobatbardoshligi.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the distinctive features of strengthening the deposit base of commercial banks, its economic significance in ensuring the stability of banking activities, and its role in the formation of financial resources. From both theoretical and practical perspectives, the study examines the importance of the deposit base in maintaining bank liquidity, enhancing lending capacity, and supporting risk management systems. Particular attention is paid to improving mechanisms for attracting idle funds of households and business entities to commercial banks, diversifying deposit products, implementing an effective deposit policy, and increasing the competitiveness of banks. The research findings contribute to identifying opportunities for ensuring the financial stability of the banking system and supporting economic growth through strengthening the deposit base of commercial banks.

Keywords: commercial banks, deposit base, bank deposits, financial resources, bank liquidity, lending capacity, deposit policy, financial stability, bank competitiveness.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются особенности укрепления депозитной базы коммерческих банков, её экономическая значимость в обеспечении устойчивости банковской деятельности, а также роль в формировании финансовых ресурсов. В рамках исследования с теоретической и практической точек зрения раскрывается значение депозитной базы в обеспечении банковской ликвидности, кредитного потенциала и системы управления рисками. Особое внимание уделяется вопросам совершенствования механизмов привлечения свободных денежных средств населения и хозяйствующих субъектов в коммерческие банки, диверсификации депозитных продуктов, эффективной реализации депозитной политики, а также повышению конкурентоспособности банков. Результаты исследования способствуют выявлению возможностей обеспечения финансовой устойчивости банковской системы и поддержки экономического развития на основе укрепления депозитной базы коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, депозитная база, банковские депозиты, финансовые ресурсы, банковская ликвидность, кредитный потенциал, депозитная политика, финансовая устойчивость, конкурентоспособность банков.

KIRISH

Bugungi kunda jahon moliya tizimida kechayotgan transformatsion jarayonlar, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi hamda moliyaviy xizmatlar bozorida raqobat muhitining kuchayishi bank tizimidan barqaror, yetarli va diversifikatsiyalashgan resurs bazasiga ega bo'lishni talab etmoqda. Mazkur sharoitda tijorat banklari

faoliyatida depozit bazasining mustahkamligi bank likvidligini ta'minlash, kreditlash salohiyatini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni saqlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimini isloh qilish va uni zamonaviy bozor mexanizmlariga moslashtirish jarayonlari so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga faol jalb etish hamda depozit munosabatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa tijorat banklari depozit bazasini kengaytirish va uni sifat jihatidan mustahkamlash zaruratini yanada oshirmoqda [1].

Davlat rahbari tomonidan ta'kidlanganidek, ayrim fuqarolarda o'z daromadlarini bank depozitlariga joylashtirish hamda moliyaviy aktivlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq ishonchsizlik holatlari mavjud. Shu nuqtai nazardan, huquqiy kafolatlar, moliyaviy shaffoflik va ishonch muhitini shakllantirish tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur yondashuv depozit resurslarini jalb etishda institutsional va ijtimoiy omillarning ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Ilmiy-nazariy jihatdan depozit bazasining yetarli va barqaror shakllanishi tijorat banklarining tashqi moliyaviy manbalarga qaramligini kamaytiradi, kreditlash jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi hamda bank risklarini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, depozit bazasining tarkibi, muddatlari va valyuta tuzilmasi bank likvidligi hamda moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning o'ziga xos xususiyatlarini kompleks ilmiy tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari depozit bazasi va uning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillar davomida muhim ilmiy tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaruvchi asosiy institutlar sifatida talqin qilinib, ular tomonidan jalb etilgan depozit resurslari jamg'armalarning samarali investitsiyalarga yo'naltirilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari depozit bazasining barqaror va diversifikatsiyalashgan holda shakllanishi banklarning moliyaviy barqarorligi, likvidligi hamda kreditlash salohiyatini mustahkamlashning muhim sharti sifatida qaraladi.

Jumladan, bank depozitlarining likvidlik va moliyaviy barqarorlikdagi ahamiyatini o'rgangan V. Thakor, A. Anjan va G. Yu Edisonlarning tadqiqotlarida banklar yetarli darajada kapitalizatsiyalangan bo'lsa, nafaqat likvidlik yaratishi, balki depozitlar qisqarish davrida ham kredit faoliyatini davom ettira olishi ta'kidlanadi [2].

Zamonaviy tadqiqotlarda banklarning moliyaviy resurs bazasi va xatarlar o'rtasidagi bog'liqlik masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Berger va Bouwman moliyaviy inqirozlar davrida bank kapitali va depozit bazasining banklar faoliyatiga ta'sirini tahlil qilib, barqaror depozit bazasiga ega banklar inqiroz sharoitida ham kreditlash hajmini nisbatan yuqori darajada saqlab qolishini isbotlaydi [3].

Demirgüç-Kunt va Martinez Peria global moliyaviy inqiroz davrida banklarning resurs bazasi tuzilmasini tahlil qilib, chakana depozitlarga tayanadigan banklar tashqi moliyalashtirishga ko'proq bog'liq bo'lgan banklarga nisbatan barqarorroq faoliyat yuritganini aniqlaydi [4]. Ushbu xulosa depozit bazasining bank tizimi barqarorligidagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Allen va Galelar bank tizimida raqobat darajasi, depozitlar hamda moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi munosabatni o'rganib, raqobatning kuchayishi depozitlar uchun kurashni jadallashtirishi, biroq yetarli institutsional nazorat mavjud bo'lmagan sharoitda ushbu jarayon tizimli xatarlarning oshishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv bank tizimini transformatsiyalash jarayonida depozit siyosatini ehtiyotkorlik bilan olib borish zarurligini ko'rsatadi [5].

Banklarning likvidlikni ta'minlashdagi funksiyasi Kashyap, Rajan va Stein tomonidan chuqur tahlil qilingan bo'lib, mualliflar banklarni "likvidlik provayderlari" sifatida tavsiflaydi. Ularning fikricha, bank depozitlari va kredit liniyalari o'rtasidagi muvozanat bank tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi [6]. Acharya va Mora esa moliyaviy inqiroz davrida banklarning depozitlarga tayanishi kredit taklifini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynashini empirik jihatdan asoslaydi [7].

Rivojlanayotgan mamlakatlar misolida olib borilgan tadqiqotlar depozit bazasini kengaytirishda ishonch va institutsional muhitning ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Martinez Peria va Schmukler omonatchilar banklar faoliyatidagi salbiy o'zgarishlarga yuqori darajada sezgir ekanini hamda ishonch pasayishi depozitlar hajmining qisqarishiga olib kelishini aniqlagan [8]. Anginer, Demirgüç-Kunt va Zhu banklar o'rtasidagi raqobat va tizimli xatarlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, depozit bazasi barqarorligi moliyaviy xavfsizlikning muhim elementi ekanligini qayd etadi [9].



Thi Anh Nhu Nguyen va boshqa tadqiqotchilar banklararo institutlar sifatining bank depozitlarining o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Ularning ta'kidlashicha, shaffoflik, huquqiy me'yorlar va institutsional tartib-intizom bank depozitlarini safarbar etishda muhim ahamiyatga ega [10].

Yuqorida tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari depozit bazasi bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kreditlash hajmini barqaror kengaytirish hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bank tizimini transformatsiyalash sharoitida depozitlar tijorat banklari uchun ichki, nisbatan arzon va barqaror moliyaviy resurs manbai sifatida ularning tashqi moliyaviy xatarlar hamda bozor tebranishlariga nisbatan chidamliligini oshiradi. Mazkur xulosalar ushbu tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shakllantirib, O'zbekiston bank tizimi misolida tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish zarurligini asoslab beradi.

Biroq banklarga xos ayrim omillar, jumladan, bank faoliyati samaradorligi hamda bank filiallari tarmog'ining kengayishi bank depozitlari o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi qayd etiladi. Shunga muvofiq, tadqiqot natijalari o'tish davridagi mamlakatlar uchun muhim xulosani ilgari suradi: ushbu mamlakatlar institutsional sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratishlari zarur, chunki aynan ushbu asosiy ko'rsatkichlar bank moliyalashtirish manbalarining barqarorligini rag'batlantirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli tahlil, empirik tahlil hamda boshqa ilmiy uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usuli asosida jahon amaliyotida tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning o'ziga xos xususiyatlari hamda uning bank faoliyati barqarorligini ta'minlashdagi iqtisodiy o'rni mamlakatimizda mavjud asoslar bilan taqqoslandi va tegishli ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank tizimini transformatsiyalash jarayonida depozit bazasining iqtisodiy ahamiyatini baholash hamda empirik tahlil natijalari bank depozitlarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, likvidlikni mustahkamlash hamda kreditlash salohiyatini kengaytirishda muhim ichki moliyaviy manba hisoblanishini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda bank depozitlarining umumiy hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ushbu holat banklarning resurs bazasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, aholi depozitlarining o'sishi banklar uchun nisbatan barqaror va uzoq muddatli moliyaviy manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Depozitlar hajmining oshishi bank likvidligi ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga olib kelib, banklarning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shuningdek, tahlil depozit bazasi va kreditlash hajmi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Depozitlar ulushi yuqori bo'lgan banklarda kredit portfeli hajmining o'sish sur'atlari tezroq kechayotgani aniqlandi. Bu holat bank depozit bazasining kredit resurslarini shakllantirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Mazkur natija banklarning ichki moliyaviy manbalarga tayangan holda real sektorni moliyalashtirish imkoniyatlari kengayotganini ko'rsatadi.

Aholi depozitlari ulushi yuqori bo'lgan banklarda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lib, bunday banklar tashqi moliyaviy resurslarga kamroq bog'liqligi bilan ajralib turadi.

Depozitlar banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kreditlash hajmini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Olingan natijalar bank tizimini rivojlantirishda depozit siyosatini takomillashtirish va omonatchilar ishonchini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning dolzarbligini asoslaydi(1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklari tomonidan milliy valyutada jismoniy shaxslar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi¹

| Davr | Jami | Jismoniy shaxslar | talab qilib olinguncha | jamg'arma | muddatli |
|-----------------|-------------|-------------------|------------------------|-----------|----------|
| 2024-yil | 5 607 221,3 | 1 306 079,0 | 1 189 255,1 | 22 965,2 | 93 858,7 |
| Yanvar | 397 033,5 | 86 858,0 | 78 425,8 | 2 114,0 | 6 318,1 |
| Fevral | 374 621,9 | 86 936,6 | 78 598,5 | 2 373,5 | 5 964,7 |
| Mart | 379 226,8 | 93 686,0 | 85 244,2 | 1 769,5 | 6 672,3 |
| Aprel | 425 640,9 | 106 671,0 | 97 500,6 | 1 529,9 | 7 640,5 |
| May | 469 676,2 | 109 213,2 | 99 758,5 | 1 561,3 | 7 893,4 |

1 <https://cbu.uz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



| | | | | | |
|-----------------|--------------------|--------------------|--------------------|-----------------|-----------------|
| Iyun | 440 619,0 | 105 355,1 | 96 223,2 | 1 551,3 | 7 580,7 |
| Iyul | 515 180,4 | 115 315,1 | 104 180,0 | 2 092,4 | 9 042,7 |
| Avgust | 527 058,1 | 116 198,7 | 105 849,9 | 2 189,3 | 8 159,5 |
| Sentabr | 467 159,4 | 111 495,8 | 102 020,5 | 1 877,8 | 7 597,5 |
| Oktabr | 524 956,1 | 120 569,7 | 110 251,8 | 1 948,6 | 8 369,3 |
| Noyabr | 501 357,1 | 119 541,1 | 109 193,6 | 1 957,7 | 8 389,8 |
| Dekabr | 584 691,8 | 134 238,7 | 122 008,5 | 1 999,9 | 10 230,3 |
| 2025-yil | 5 407 276,7 | 1 345 879,8 | 1 230 352,6 | 27 105,3 | 88 421,9 |
| Yanvar | 550 815,5 | 129 414,9 | 116 206,3 | 2 577,6 | 10 631,0 |
| Fevral | 517 853,6 | 125 771,5 | 114 466,1 | 2 719,6 | 8 585,8 |
| Mart | 536 008,0 | 136 045,7 | 123 582,0 | 3 072,4 | 9 391,3 |
| April | 609 356,4 | 155 077,6 | 142 874,7 | 2 981,4 | 9 221,5 |
| May | 594 963,6 | 150 738,2 | 138 771,6 | 2 764,1 | 9 202,5 |
| Iyun | 614 880,5 | 152 840,6 | 141 820,0 | 2 636,6 | 8 384,0 |
| Iyul | 677 354,7 | 163 667,2 | 149 180,8 | 3 376,7 | 11 109,8 |
| Avgust | 643 353,2 | 160 104,2 | 146 192,1 | 3 367,6 | 10 544,5 |
| Sentabr | 662 691,2 | 172 220,0 | 157 258,9 | 3 609,3 | 11 351,7 |

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari 2024–2025-yillarda tijorat banklari tomonidan milliy valyutada jalb qilingan depozitlar hajmi va tarkibida sezilarli tarkibiy hamda miqdoriy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi. Xususan, tahlil davrida depozitlar umumiy hajmining yuqori darajada saqlanib qolishi bank tizimi resurs bazasining barqaror shakllanayotganidan dalolat beradi.

2024-yilda jami depozitlar hajmi 5 607 221,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, uning asosiy qismi yuridik shaxslar depozitlari hissasiga to'g'ri kelgan. Ushbu davrda yuridik shaxslar depozitlarining jami depozitlardagi ulushi 76 foizdan ortiq bo'lib, bu tijorat banklari resurs bazasida xo'jalik yurituvchi subyektlar mablag'lari yetakchi o'rinni egallayotganini ko'rsatadi. Jismoniy shaxslar depozitlari hajmi esa 1 306 079,0 mlrd so'mni tashkil etib, bank tizimida aholi jamg'armalarining ham barqaror manba sifatida shakllanayotganini anglatadi.

2025-yil ma'lumotlari bilan solishtirilganda, jismoniy shaxslar depozitlarining mutlaq hajmda oshgani kuzatiladi. Bu holat aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini hamda depozit xizmatlarining jozibadorligi kuchayayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, yuridik shaxslar depozitlari hajmi yuqori darajada saqlanib qolib, banklarning kreditlash faoliyatini uzluksiz moliyalashtirish imkonini bermoqda.

Depozitlar turlari kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, talab qilib olinguncha depozitlar jami depozitlar tarkibida eng katta ulushni egallaydi. Mazkur holat bank likvidligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy bo'lsa-da, resurslarning barqarorligi nuqtai nazaridan jamg'arma va muddatli depozitlar ulushini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Tahlil davrida ayniqsa jamg'arma va muddatli depozitlar hajmining bosqichma-bosqich ortib borishi tijorat banklari depozit siyosatining samaradorligi oshib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, oylik kesimdagi ma'lumotlar depozitlar hajmining mavsumiy tebranishlarga ega ekanini ko'rsatadi. Yilning ikkinchi yarmida, ayniqsa iyul–dekabr oylarida depozitlar hajmining nisbatan oshishi iqtisodiy faollikning kuchayishi hamda daromadlar oqimining ko'payishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari tijorat banklari depozit bazasining miqdoriy va tarkibiy jihatdan mustahkamlanib borayotganini, bu esa bank likvidligini ta'minlash, kreditlash salohiyatini kengaytirish hamda bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Ushbu holat tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish va depozit siyosatini takomillashtirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tijorat banklariga joylashtirilgan depozitlar bank tizimi resurs bazasining muhim va nisbatan barqaror tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur depozitlar aholi jamg'armalarini iqtisodiyotga jalb etish orqali moliyaviy vositachilik mexanizmining samarali ishlashini ta'minlaydi hamda bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Jismoniy shaxslar tomonidan jalb qilingan depozitlar tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning muhim omili bo'lib, bank likvidligini ta'minlash, kreditlash salohiyatini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tijorat banklari tomonidan aholi depozitlarini jalb etishga qaratilgan depozit siyosatini takomillashtirish va omonat mahsulotlarini diversifikatsiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi(2-jadval).

2-jadval. Tijorat banklari tomonidan milliy valyutada yuridik shaxslar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi²

| Davr | Jami | Yuridik shaxslar | talab qilib olinguncha | jamg'arma | muddatli |
|-----------------|-------------|------------------|------------------------|-----------|----------|
| 2024-yil | 5 607 221,3 | 4 301 142,3 | 3 771 804,2 | 431 753,3 | 97 584,7 |
| Yanvar | 397 033,5 | 310 175,6 | 264 103,6 | 38 458,3 | 7 613,6 |
| Fevral | 374 621,9 | 287 685,3 | 253 416,0 | 27 753,5 | 6 515,8 |
| Mart | 379 226,8 | 285 540,8 | 255 062,3 | 25 045,7 | 5 432,8 |
| Aprel | 425 640,9 | 318 969,9 | 283 617,8 | 27 059,7 | 8 292,3 |
| May | 469 676,2 | 360 463,0 | 314 674,8 | 35 660,6 | 10 127,6 |
| Iyun | 440 619,0 | 335 263,9 | 291 335,1 | 36 345,7 | 7 583,0 |
| Iyul | 515 180,4 | 399 865,3 | 347 726,2 | 42 907,0 | 9 232,1 |
| Avgust | 527 058,1 | 410 859,3 | 359 387,9 | 42 416,1 | 9 055,4 |
| Sentabr | 467 159,4 | 355 663,6 | 314 707,2 | 32 543,9 | 8 412,5 |
| Oktabr | 524 956,1 | 404 386,4 | 353 509,3 | 42 417,8 | 8 459,2 |
| Noyabr | 501 357,1 | 381 816,0 | 337 105,8 | 37 096,8 | 7 613,5 |
| Dekabr | 584 691,8 | 450 453,2 | 397 158,1 | 44 048,1 | 9 247,0 |
| 2025-yil | 5 407 276,7 | 4 061 396,9 | 3 482 790,6 | 490 847,7 | 87 758,6 |
| Yanvar | 550 815,5 | 421 400,6 | 349 353,0 | 61 749,9 | 10 297,6 |
| Fevral | 517 853,6 | 392 082,1 | 333 818,3 | 47 491,5 | 10 772,2 |
| Mart | 536 008,0 | 399 962,2 | 345 217,0 | 41 363,1 | 13 382,2 |
| Aprel | 609 356,4 | 454 278,9 | 388 654,4 | 54 984,8 | 10 639,7 |
| May | 594 963,6 | 444 225,4 | 384 795,3 | 50 535,1 | 8 895,0 |
| Iyun | 614 880,5 | 462 039,9 | 400 838,8 | 54 465,1 | 7 535,2 |
| Iyul | 677 354,7 | 513 687,5 | 447 782,6 | 57 861,1 | 8 043,7 |
| Avgust | 643 353,2 | 483 249,0 | 420 104,3 | 55 027,0 | 8 117,7 |
| Sentabr | 662 691,2 | 490 471,3 | 413 026,8 | 67 369,2 | 10 075,2 |

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlari 2024–2025-yillarda tijorat banklari tomonidan milliy valyutada yuridik shaxslar hisobidan jalb qilingan depozitlar hajmi va tarkibida muhim miqdoriy hamda tarkibiy o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Tahlil davrida yuridik shaxslar depozitlari tijorat banklari depozit bazasining asosiy qismini shakllantirib, bank tizimi resurslarining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

2024-yilda jami depozitlar hajmi 5 607 221,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 4 301 142,3 mlrd so'mi yuridik shaxslar depozitlari hissasiga to'g'ri kelgan. Ushbu ko'rsatkich yuridik shaxslar depozitlarining jami depozitlardagi ulushi yuqori ekanini hamda tijorat banklari resurs bazasi asosan xo'jalik yurituvchi subyektlar mablag'lari hisobidan shakllanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, talab qilib olinguncha depozitlarning 3 771 804,2 mlrd so'mni tashkil etishi banklar likvidligini ta'minlashda ushbu depozit turining yetakchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

2025-yil ma'lumotlari bilan solishtirilganda, yuridik shaxslar depozitlarining umumiy hajmi nisbatan yuqori darajada saqlanib qolgan bo'lib, 4 061 396,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, depozitlar tarkibida muayyan tarkibiy siljishlar kuzatiladi. Xususan, talab qilib olinguncha depozitlar ulushi saqlanib qolgan bo'lsa-da, jamg'arma depozitlari hajmining oshishi banklar tomonidan depozit siyosatini diversifikatsiyalashga bo'lgan intilish kuchayayotganini ko'rsatadi. Bu holat tijorat banklari depozit bazasining barqarorligini oshirish nuqtai nazaridan ijobiy tendensiya hisoblanadi.

Oylar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatadiki, yuridik shaxslar depozitlari hajmi yil davomida nisbatan notekis taqsimlangan bo'lib, iqtisodiy faollik oshgan davrlarda, xususan, yilning ikkinchi yarmida sezilarli o'sish kuzatiladi. Bu holat xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlari mavsumiy xususiyatga ega ekanini va bank depozit bazasining shakllanishida real sektor bilan bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, yuridik shaxslar depozitlari tarkibida muddatli depozitlar ulushining nisbatan pastligi banklar uchun resurslarning barqarorligi nuqtai nazaridan muayyan cheklovlarni yuzaga keltiradi. Bu esa tijorat banklari oldida yuridik shaxslar uchun uzoq muddatli va rag'batlantiruvchi depozit mahsulotlarini rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari yuridik shaxslar depozitlari tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning muhim omili ekanini, biroq ularning tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish va muddatli depozitlar ulushini oshirish bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada kuchaytirish imkonini berishini ko'rsatadi. Mazkur holat tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning o'ziga xos xususiyatlari doirasida yuridik shaxslar depozitlarining strategik ahamiyatini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Yuqoridagi har ikkala jadval ma'lumotlarining kompleks tahlili shuni ko'rsatadiki, 2024–2025-yillarda tijorat banklari depozit bazasining miqdoriy va tarkibiy jihatdan shakllanishida jismoniy va yuridik shaxslar depozitlarining o'ziga xos roli yaqqol namoyon bo'ladi. Tahlil davrida milliy valyutada jalb qilingan depozitlar

2 <https://cbu.uz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



umumiy hajmining yuqori darajada saqlanib qolishi bank tizimi resurs bazasining nisbatan barqaror rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Jismoniy shaxslar depozitlari depozit bazasining barqaror va diversifikatsiyalashgan qismini, yuridik shaxslar depozitlari esa hajm jihatidan asosiy resurs manbaini tashkil etmoqda. Ushbu nisbat tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlashning o'ziga xos xususiyati sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy izlanishlar natijalari tijorat banklari depozit bazasining bank tizimi barqarorligini ta'minlashdagi hal qiluvchi ahamiyatini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, depozit bazasining yetarli darajada shakllanishi tijorat banklarining ichki moliyaviy resurslarga tayangan holda faoliyat yuritishini ta'minlab, ularning tashqi moliyalashtirish manbalariga bo'lgan qaramligini sezilarli darajada kamaytiradi.

Empirik tahlil natijalari 2024–2025-yillarda tijorat banklari tomonidan milliy valyutada jalb qilingan depozitlar hajmining barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa, jismoniy shaxslar depozitlarining bosqichma-bosqich ortib borishi aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi hamda depozit bazasining ijtimoiy tayanchini kuchaytiradi. Yuridik shaxslar depozitlari esa hajm jihatidan bank resurs bazasining asosiy qismini tashkil etib, kreditlash faoliyatining uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga, depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning yuqori ulushi bank likvidligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy bo'lsa-da, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun jamg'arma va muddatli depozitlar ulushini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari depozit bazasi va kreditlash hajmi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlab, barqaror depozit bazasiga ega banklarda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari nisbatan yuqori ekanini ko'rsatdi.

Tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash bank tizimini transformatsiyalash sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, real sektorni kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning muhim sharti ekanligi ilmiy asosda isbotlandi.

Olingan ilmiy xulosalar asosida tijorat banklari depozit bazasini mustahkamlash bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Depozitlar tarkibini optimallashtirish. Tijorat banklarida talab qilib olinguncha depozitlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib, jamg'arma va muddatli depozitlar ulushini oshirishga qaratilgan depozit siyosatini amalga oshirish zarur.

2. Aholi depozitlarini rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish. Jismoniy shaxslar uchun uzoq muddatli, moslashuvchan va inflyatsiya darajasini inobatga oluvchi omonat mahsulotlarini joriy etish orqali aholi jamg'armalarini bank tizimiga faol jalb etish lozim.

3. Yuridik shaxslar uchun barqaror depozit mahsulotlarini rivojlantirish. Xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun muddatli va jamg'arma depozitlar bo'yicha soliq, foiz yoki servis imtiyozlarini joriy etish orqali resurslarning barqarorligini oshirish maqsadga muvofiq.

4. Raqamli bank xizmatlarini kengaytirish. Masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar va onlayn omonat platformalarini rivojlantirish orqali depozitlarni jalb etish jarayonini soddalashtirish va moliyaviy inklyuziyani oshirish zarur.

5. Ishonch va institutsional muhitni mustahkamlash. Omonatchilar huquqlarini himoya qilish, bank faoliyatining shaffofligini oshirish va huquqiy kafolatlarni kuchaytirish orqali bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlash lozim.

6. Depozit siyosatini makroiqtisodiy va mavsumiy omillar bilan uyg'unlashtirish. Depozitlar oqimidagi mavsumiy tebranishlarni yumshatish maqsadida banklarning depozit siyosatini iqtisodiy faollik davrlari bilan muvofiqlashtirish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi tijorat banklari depozit bazasining barqaror va diversifikatsiyalashgan holda rivojlanishiga, bank tizimining moliyaviy mustahkamligini oshirishga hamda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025-yil. <https://president.uz/oz/lists/view/8834>
2. Thakor, A., Edison, G. Y. Funding liquidity creation by banks // Journal of Financial Stability. – 2024. – T. 73. – B. 101295.
3. Berger, A. N., & Bouwman, C. H. S. (2013). How does capital affect bank performance during financial crises? Journal of Financial Economics, 109(1), 146–176.



4. Demirgüç-Kunt, A., & Martinez Peria, M. S. (2015). Bank funding structures and risk: Evidence from the global financial crisis. *Journal of Financial Stability*, 20, 1–13.
5. Allen, F., & Gale, D. (2004). Competition and financial stability. *Journal of Money, Credit and Banking*, 36(3), 453–480.
6. Kashyap, A. K., Rajan, R., & Stein, J. C. (2002). Banks as liquidity providers. *Journal of Finance*, 57(1), 33–73.
7. Acharya, V. V., & Mora, N. (2015). A crisis of banks as liquidity providers. *Journal of Finance*, 70(1), 1–43.
8. Martinez Peria, M. S., & Schmukler, S. L. (2001). Do depositors punish banks for bad behavior? *Journal of Finance*, 56(3), 1029–1051.
9. Anginer, D., Demirgüç-Kunt, A., & Zhu, M. (2014). How does competition affect bank systemic risk? *Journal of Financial Intermediation*, 23(1), 1–26.
10. Nguyen, T. A. N. The role of institutional quality in bank deposit growth in European transition economies // *Finance Research Letters*. – 2022. – T. 47. – B. 102630.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100